

YOSH AVLODNI MAQOM SAN’ATIGA QIZIQSHI PASAYISHINING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Safarova Shaxzoda

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

“Vokal va cholg‘u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash” kafedrasida xodimi

Ilmiy maslahatchi: katta o‘qituvchi, PhD Go‘zal Mo‘minova

Annotatsiya: *Maqom san’ati o‘zbek madaniyatining eng yuksak namunalariidan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, globallashtiruv va raqamli axborot asrida yosh avlodning maqomga qiziqishi sezilarli darajada susayib bormoqda.*

Ushbu maqolada mazkur holatning ijtimoiy ijtimoiy, madaniy va pedagogik omillari tahlil qilinadi, hamda uni bartaraf etishning samarali yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zi: *maqom, yoshlar, musiqiy me‘ros, globallashtiruv, talim, targ‘ibot, milliy madaniyat.*

Abstract: *The art of maqom is considered one of the highest examples of Uzbek culture. At the same time, in the age of globalization and digital information, the interest of the younger generation in maqom is noticeably declining.*

This article analyzes the socio-cultural, cultural and pedagogical factors of this situation, and suggests effective ways to overcome it.

Keywords: *status, youth, musical heritage, globalization, education, advocacy, national culture.*

Аннотация: *Искусство макома считается одним из высших образцов узбекской культуры. Вместе с тем, в эпоху глобализации и цифровой информации интерес молодого поколения к макому заметно снижается.*

В данной статье анализируются социокультурные, культурные и педагогические факторы сложившейся ситуации и предлагаются эффективные пути её преодоления.

Ключевое слово: *макам, молодежь, музыкальное наследие, глобализация, образование, популяризация, национальная культура.*

Maqom san’ati boshqa san’at turlari kabi qadimiy tarixga egadir. Maqom kuy qo‘shiq-lari shunchaki ohang emas, balki inson ruhiyatining ozuqasi ham bo‘la oladi. Chunki maqom kuylarida ishlatiladigan g‘azallar Navoiy, Bobur, Furqat, Lutfiy kabi buyuk shoirlarning g‘azallaridir. Ularning g‘azallarida chuqur ma‘no va mazmun yotadi. G‘azallarda keladigan ishq bir ko‘rinishda yorga qaratilgandek ko‘rinadi. Lekin aslida u yerda so‘z borayotgan ishq Allohga bo‘lgan g‘oyibona muhabbatdan darak berib turadi. Shu bilan birga g‘azallar aruz vaznining murakkab tuzilmalarida yozilgan hisoblanadi.

Tarixan olib qarasak, maqomlar o‘tmishda faqatgina saroy ichkarisida kuylangan. Maqomning mohir ijrochilari ham saroydan tashqarida maqom kuylarini ijro etishlari mumkin bo‘lmagan. Shu tufayli maqomni “xoslar san’ati” deb atashgan.

Maqom san’ati o‘zining murakkab shakl-shamoyili, keng hajmi va ijro talabi bilan ajralib turadi. Har bir maqom bo‘limlari cholg‘u va ashula yo‘lidan iborat bo‘lib, tasnif, tarje, gardun, muhammas, saql; ashula yo‘li esa sarahbor, talqin, nasr, ufar, savt va mo‘g‘ulchalardan iboratdir. Maqom kuy va qo‘shiqclarini ijro etish san’atkordan katta mahorat talab etadi. Musiqiy savodga ega bo‘lmagan insonlar maqom kuy va qo‘shiqclarini tinglashlari biroz qiyin kechadi. Chunki bu kuy va qo‘shiqclar o‘g‘ir-vazmin harakterga ega bo‘lib, falsafiy yetuk asar hisoblanadi. Shu sababli ham hozirgi kunda maqom kuy va qo‘shiqclarining tinglovchilari soni qisqarib bormoqda. Yosh avlod, shu qatorda ba’zi yoshi katta insonlar ham milliy kuy qo‘shiqclarimizni tinglash o‘rniga xorij va zamonaviy rok, pop, rap kabi janrlarni eshitishni afzal ko‘rishmoqda. Maqomning kuylari ohangdor va falsafiy chuqurligi tufayli darhol qabul qilinishi qiyin kechmoqda. Natijada maqom ko‘plab yoshlar nazarida “og‘ir”, “murakkab” yoki “zerikarli” musiqaga aylanib qolmoqda.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda milliylikni, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash har birimizni burchimiz sanaladi. Ayniqsa so‘z san’at sohasida bo‘lsa. Dunyoda shunday san’at turi borki, uni so‘z bilan ta’riflash shart emas. Ayni shu san’at musiqqa san’atidir. Musiqqa san’atida bir asarning o‘zi sizga butun bir dunyoni ta’riflab bera oladi. Dunyoda yaratilgan har bir kuyni tinglaganingizda tilini tushunmasangiz ham, falsafiy jihatdan qanday ma’no va mazmun anglatayotganini anglab olasiz va sizni o‘z dunyosiga olib ketadi.

Biz musiqani davalovchi shifobaxsh xususiyatga ega, falsafiy jihatdan yetuk asar dedik. Xo‘sh shunday ekan nega bugungi kunga kelib milliy musiqqa san’ati ishtiyuqmandlari kamayib bormoqda. Yoshlar orasida yevropa musiqasiga qiziqish ortishi ortidan ommaviy madaniyatga ham salbiy ta’sir o‘tkazishni boshlamoqda. Ushbu holatlarni o‘rganib chiqish orqali quyidagi xulosalarga keldik.

Maqom san’atining murakkab tabiati:

Maqom san’ati o‘zining ko‘p qismli tuzulishi va murakkab uslubiyoti bilan ajralib turadi. Masalan birgina o‘zim ijro etgan Shashmaqom tarkibidagi “Navo” maqomining o‘zida cholg‘u yo‘li kuylari; tasnif, tarje, gardun muhammas va saql, ashula yo‘li; sarahbor, talqin, nasr, ufar, savt, mo‘g‘ulcha kabi qismlardan iborat. Shu bois, tezkor is’temolga asoslangan zamonaviy musiqiy janr sifatida qabul qilinadi. Musiqashunos olim, professor Shaxnoza Olho‘jayeva qayd etganlaridek; “Maqomni to‘laqonli anglash uchun tinglovchi ham ichki ruhiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur”. Hozirgi yosh avlod esa nisbatan yengil tez hazm bo‘ladigan asarlarni tinglashni afzal ko‘rishmoqda. Bunga yana bir sabablardan biri shou-biznesda faoliyat olib borayotgan qo‘shiqchilar tomonidan istemolga berilayotgan asarlar ham sabab bo‘lmoqda.

Mediamakondagi targ‘ibotning yetishmasligi: Maqom san’ati asosan rasmiy marosimlarda va maxsus kosertlarda ijro etiladi. Ommaviy axborot vositalarida esa pop, estrada va xorijiy musiqiy yo‘nalishlar ustunlik qilmoqda. Asosan maqom va milliy kuy-

qo‘shiqilar kechki yoki erta tongda radio va televideniya efirga uzatiladi. Asosiy vaqtlarda esa yevropa va estrada kuy qo‘shiqlari, kino va seriallar efirga uzatiladi. Bu holat asosan shaxsiy telekanallar orqali amalga oshirilmoqda. Bu bizning eng katta kamchilik jihatlrimizdan biri hisoblanadi. Buning natijasida yoshlar o‘zining kundalik hayotida maqom bilan deyarli uchrashishmayapti. Ijtimoiy tarmoqlarda esa keraksiz kontentlar eng katta ustunlikni qo‘lga kiritmoqda.

Mediamakon yoshlarning musiqiy didiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini hisobga olsak, maqomni targ‘ib qilishdagi sustlik yosh avlod qiziqishining pasayishiga olib kelishi tabiiydir. Va yana bir holat borki bu yaqin yillarda ommalashayotgan va televideniya orqali efirga uzatilayotgan turli xil tanlovlar. Bu tanlovlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad, milliy qadriyatlarni va milliy kuy-qo‘shiqlarni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish emasmi. Masalan; Ovoz, Artist kabi yirik auditoriyaga ega bo‘lgan tanlovlarning 70 foizida yevropa va estrada kuy-qo‘shiqlari sahnaga olib chiqilib, ayni shu janrlar targ‘ib qilinmoqda. Bu esa asosiy maqsaddan juda ham yiroqlashib ketilmoqda.

Ta‘limdagi kamchilik:

Umumta‘lim maktablarida musiqa darslari cheklangan bo‘lib maqom san‘ati yuzaki tarzda o‘rgatiladi. Prezidentimiz tomonlaridan 2022-yil e‘lon qilingan PQ112-sonli qarorlariga asosan har bir maktab bitiruvchilari kamida 3 ta cholg‘uni ijro eta olishi shart ekanligi qonun bilan belgilab qo‘yildi. Ammo hozirgi kunda haqiqatdan ham maktab bitiruvchilari kamida 3 ta cholg‘uni ijro etish ko‘nikmasini egallashmoqdami degan o‘rinli savol yuzaga kelmoqda. Shu sabab ham ko‘plab yoshlar maqom haqida qisqa nazariy tushunchaga ega bo‘lishmoqda. Musiqashunos olim Is‘hoq Rajabov aytganlaridek; “maqom nafaqat sahna, balki ta‘lim jarayonida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmog‘i lozim”.

Oila va ijtimoiy muhit.

Pedagogik nuqtai nazaridan qaraganda, musiqiy did va qiziqish, avvalo, oilaviy muhitdan shakllanadi. Agar ota-onalar farzandlariga maqomni eshittirmasa, uning badiiy-estetik mazmunini tushuntirib bermasa, yoshlar orasida qiziqish paydo bo‘lishi juda ham qiyin bo‘ladi. Shu bilan birga tengdoshlar muhitida maqom “zamonaviy emas” va “keksa avlod musiqasi” deya qabul qilinmoqda.

Ho‘sh ushbu muammolarni hal qilish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim.

Ta‘lim tizimida maqomni integratsiya qilish.

Maktab darsliklariga maqom namunalarini kiritish. Integrativ metodlardan foydalanish va audio-vizual darsliklar, mobil ilovalar, virtual konsertlarni tashkil etish

Mediamakonda targ‘ibotni kuchaytirish; qisqa vidioroliklar, podkastlar, hujjatli filmlarda milliy maqom kuy-qo‘shiqlaridan foydalanish.

Zamonaviy talqinlarni rivojlantirish; milliy maqom kuy-qo‘shiqlarimizni simfonik orkestrlar, sahnaviy badiiy ko‘rinishlar asosida xalq orasiga singdirish. Shu bilan birga maqomni eng avvalo musiqa va san‘at sohasida tahsil olayotgan talabalarga darslik sifatida joriy qilish. Agar maqom san‘atini san‘at sohasida faoliyat olib borayotgan insonlar tushunmasa va qabul qila olmasa, oddiy xalqning onggiga singdirish juda mushkul hisoblanadi.

Oilaviy muhitda, va uy sharoitida maqom yozuvlarini tinglash an‘anasini shakllantirish, farzandlarga maqom ashulalarini badiiy mazmunini yetkazib bera olish.

Yoshlar uchun maxsus madaniy loyihalar masalan, “Yosh maqomchilar” kabi ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish va u tanlovlarda faqatgina maqom ashulalarini yangrashini ta‘minlash.

Ushbu barcha muammo va yechimlardan shuni xulosa qilib ayta olamanki, ushbu go‘zal va betakror maqom san‘ati o‘tmishdagi kabi o‘z qadr-qimmatini hozirgacha saqlab kelmoqda va bundan so‘ng ham davom etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni esa milliy kuy-qo‘shiqlarimizga qiziqishini oshirish uchun esa, milliy qadr va milliy g‘ururni rivojlantirmog‘imiz, shu asnoda madaniyat va san‘at sohasini yanada ko‘proq isloh etmog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ112 sonli qarori Toshkent 2022-yil
2. Hasanov A. “Musiq va tarbiya” T.O‘qituvchi 1997 yil
3. Olxo‘jayeva Shaxnoza “Maqom taronalari” Toshkent – 2011 yil
4. Rajabov I. “Maqom asoslari” Toshkent – 2019 yil
5. R.Qodirov “Musiq psixologiyasi” Toshkent 2005 yil
6. Yusupova N. “Musiq savodi, metodika va ritmika” Toshkent 2010 yil